

**Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi
subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning
ishlash tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda tabiiy monopoliya subyektlari, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek oxirgi uch yilda tovar sotishdan olingan jami tushumining o'rtacha yillik miqdori 30 milliard so'mdan oshadigan korporativ buyurtmachilarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi - O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda - Vazirlik);

monopoliyaga qarshi komplaens - faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobot - Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o'z ichiga oladigan hujjat;

vakolatli shaxs (bo'linma) - Vazirga va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga bevosita bo'ysunadigan, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlab chiqish, joriy etish va uning tegishli monitoringini, shuningdek, faoliyatini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan alohida tarkibiy bo'linma yoki shaxs;

savdolar - tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog'liq bo'lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda ularning rahbarlari

tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta'minlash;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning xodimlarida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo'nalish bo'yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o'qitish yo'li bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

2-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish

4. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta'minlash va monitoring qilish maqsadida tashkiliy tuzilma, shtatdagi xodimlari soni va faoliyat xususiyatiga muvofiq vakolatli shaxs (bo'linma) tayinlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta'minlash va monitoring qilish ichki audit xizmatiga yuklanadi.

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash vazir tomonidan, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyatini monitoring qilish vakolatli shaxsi (bo'linmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

6. Vakolatli shaxs (bo'linma) quyidagilarni amalga oshiradi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qiladi;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qiladi (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazadi), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqadi;

raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha boshqa tuzilmaviy bo'linmalar bilan o'zaro aloqalarni muvofiqlashtiradi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bilan bog'liq ichki o'rganish ishlarini tashkil etadi;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo'yicha o'zaro axborot almashadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo'ljallangan «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish bo'yicha ichki nizom ishlab chiqadi hamda uning belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'minlaydi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlarini monitoring qiladi, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlaydi, xavflar bilan bog'liq holatlar hisobini yuritadi va yuzaga kelish ehtimolini belgilaydi;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar beradi;

monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazadi;

har yili 15-yanvarga qadar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan monopoliyaga qarshi komplaens hisobotlarni o'rganadi, tahlil qiladi va vazirga axbort beradi.

7. Vakolatli shaxsning (bo'linma mas'ul xodimlarining) lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi:

Vazirning tegishli buyrug'i asosida - Vazirlik markaziy apparatidagi vakolatli shaxs (bo'linma);

Vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari boshliqlari monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo'yicha vakolatli shaxs hisoblanadi;

xo'jalik yurituvchi subyektda - ijro etuvchi organ tomonidan kuzatuv kengashi (agar mavjud bo'lsa) bilan kelishilgan holda, vazirlikni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda vazirlikni xabardor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Vakolatli shaxs (bo'linma) bevosita vazirga, xo'jalik yurituvchi subyektda ijro etuvchi organga yoki kuzatuv kengashiga (agar mavjud bo'lsa) bo'ysunadi va hisobdor bo'ladi.

8. Vakolatli shaxs (bo'linmaning mas'ul xodimlari) lavozimiga nomzod quyidagi talablarga javob berishi lozim:

iqtisodiyot, boshqaruv tizimi (menejment), huquq yoxud davlat boshqaruvi organi yoki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

ustuvor ravishda komplaens, xavflarni boshqarish, ichki audit yoxud davlat organi yoki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yuridik ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha kamida bir yillik ish tajribasining mavjudligi.

9. Monopoliyaga qarshi kurashish organi – vakolatli shaxs (bo'linma):

Vazirlik tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va faoliyatini yuritishda hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha bir yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi"ning ishlab chiqilishida ko'maklashadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni amalga oshirish natijalarini o'rganadi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining bajarilish natijalarini baholaydi;

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni o'rganadi hamda kamchiliklar va qonunbuzarliklar aniqlangan taqdirda, davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli ogohlantirishlar beradi;

konsalting kompaniyalarni jalb etgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish bo'yicha seminarlar, konferensiyalar va amaliy treninglarni tashkil qiladi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ijrosini monitoring qilish, raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va baholash, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari va uni baholash tartibi hamda boshqa chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi ichki lokal xujjatlar asosida faoliyatni muvofiqlashtirib boradi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni rasmiy veb-saytga joylashtiradi.

3-bob. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

10. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo'linma) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo'shimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o'rganish;

tender va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish;

aniqlangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan o'zining ustun holatini suiiste'mol qilishga, monopol yuqori yoki monopol past narxlarni o'rnatishga, kontragentlarga manfaatsiz va cheklovchi shartnoma shartlarini majburan qabul qildirishga, til biriktirishlar, kelishuvlar va kelishilgan harakatlarni aniqlash, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar bozoriga kirishiga to'siqlar yaratishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash.

Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda, monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi.

11. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo'yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli shaxs (bo'linma) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo'yicha taqsimlanadi.

12. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlari asosida vakolatli shaxs (bo'linma) tomonidan xavflar tavsifi tuziladi, unga xavflarning paydo bo'lish sabablari va shartlarini baholash ishlari ham kiritiladi.

13. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

4-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash

14. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar belgilanadi.

15. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligi monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida amalga oshiriladi.

16. Vakolatli shaxs (bo'linma) Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

17. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarga erishilgani to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

5-bob. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot

18. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

19. Vazirlik va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot o'zlarining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va 1-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga yuboradi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Mazkur nizomni qo'llash bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

21. Mazkur nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli
texnologiyalar vazirligi va uning
tizimidagi xo'jalik yurituvchi
subyektlarda monopoliyaga qarshi
komplaens tizimini joriy etish va uning
ishlash tartibi to'g'risidagi nizomga
ILOVA

**Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi
bo'yicha**

NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	Oqibatlar darajasi		
	Past	O'rtacha	Yuqori
Yuqori ehtimollik			
O'rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

** Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bozor faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab o'zgartirilishi mumkin.*